



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2023-yil 31-oktabr

2023-yil 31-oktabr kuni “NKMK” AJ Navoiy mashinasozlik zavodida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil topganligining 65 yilligi hamda Navoiy mashinasozlik zavodi tashkil topganligining 60 yilligiga bag'ishlab ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun press-tur va matbuot anjumani o'tkazildi.

Press-tur davomida OAV vakillari va jurnalistlar zavodining yirik sexlarida bo'lib, korxonada ish jarayonlari va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar bilan yaqindan tanishib, ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdilar.

Ta'kidlandiki, bugungi kunda mazkur zavod mahalliylashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha respublikamizda eng yuqori o'rirlarni egallab kelayapti. Ayni paytda korxonada **3,5 ming nafar** muhandis-texnologlar, metallurglar, mexaniklar, konstrukturlar va boshqa kasb egalari fidokorona mehnat qilishmoqda.

Navoiy mashinasozlik zavodida **15 ming turdan ortiq** yuqori sifatli mahsulotlar, shu jumladan, metall va yog'ochga ishlov beruvchi dastgohlar, yirik kon texnikalari uchun detallar ishlab chiqarilmoqda. Kombinat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan **97 foizlik** ehtiyyot qismlari, uskuna va jihozlar NMZda tayyorlanmoqda.

2023-yilda zavod ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish doirasida “Mexanik yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash” loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha bo'yicha sexning yangi binosi qurilib, zamonaviy, samaradorligi yuqori dastgohlar ishga tushirildi. Yangi sexning ishga tushirilishi og'irligi 980 tonnagacha bo'lgan tegirmonlar, shuningdek, yanchish uskunalari, nasoslar, quyultirgichlar ishlab chiqarish va ularni ta'mirlash, og'irligi 400 tonnagacha bo'lgan yirik o'lchamdagи jihozlarga ishlov berish imkonini berdi.

Shu bilan zavodning Quymachilik sexida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini oshirish maqsadida 25 tonnalik zamonaviy metall eritish pechi ishga tushirildi. Ushbu pech metall eritish quvvatini yiliga 30 foizgacha oshirish imkonini beradi.

So'ng tadbir ishtirokchilari uchun NMZ majlislar zalida matbuot anjumanı tashkil etildi.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlar savollariga atroficha javoblar berildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati – yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati! Kombinatda olib borilayotgan keng ko'lamlı amaliy ishlar natijada ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdarligini oshirish hamda mahsulot tannarhini pasaytirishga xizmat qiladi.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

"NKMK" AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc

Ma'lumot uchun:

"NKMK" AJ jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari to'liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlanТИRilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. "NKMK" AJning "999,9" soqlikdagi oltin quymalari jahoning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi.